



DINIY DUOLARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI TARJIMASI VA
ULARNING KORPUS TAHLILI

TRANSLATION OF RELIGIOUS PRAYERS IN ENGLISH AND UZBEK
LANGUAGES AND THEIR CORPUS ANALYSIS

ПЕРЕВОД РЕЛИГИОЗНЫХ МОЛИТВ НА АНГЛИЙСКИЙ И
УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫКИ И ИХ КОРПУСНЫЙ АНАЛИЗ

Ataboyev Nozimjon Bobojon o'g'li

Fan doktori, dotsent, BuxDU xorijiy tillar dekani

n.bataboyev@buxdu.uz

Abdullayeva Nigina Abdukadirovna

BuxDU, qiyosiy tilshunoslik va lingvistik tarjimashunoslik

2-kurs magistranti

n.a.abdullayeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola ikkala(ham ingliz ham o'zbek) tillarda taxminan 263 ta duoni o'z ichiga olgan diniy duolar korpusi tahlillari natijalarini bo'lishishga mo'ljallangan. Shuningdek, korpuslar natijalarining qiyosiy tahliliy g'oyasini ham ilgari surishda yordam beradi. Ushbu maqola so'ngida esa, www.sketchengine.com dayaratilgan "Supplications Corpus" va "duolar to'plami" korpuslaridan kelib chiqqan so'zlar ro'yxati-chastotasining ajoyib natijalarini ham o'zida aks ettiradi.

Annotation: This article intends to share the result of corpus analysis in terms of religious supplications both in English and Uzbek languages including almost 263 duas (prayers). Plus, it assists to put forward the idea of analyzing comparative and contrastive outcomes of corpora results. At the end, after gathering what had been compiled as "Supplications Corpus", "duolar to'plami" in www.sketchengine.com, it reveals marvelous results in a sense of word list mentioned in prayers.

Keywords: Supplication corpus, "duolar to'plami", word list, chastota, sketch engine, corpus, corpora, word sketch, view generator, Allah, lingvomadaniyat, reward, savob.

Аннотация: В этой статье предполагается поделиться результатом корпусного анализа религиозных молений на английском и узбекском языках, включая почти 263 дуа (молитвы). Кроме того, это помогает выдвинуть идею анализа сравнительных и контрастивных результатов корпусных результатов. В конце, после сбора того, что было составлено как «Корпус молений», «дуолар




MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

то 'плами» на www.sketchengine.com, он показывает изумительные результаты в смысле списка слов, упомянутых в молитвах.

Introduction: Bugungi kunda jahon tilshunosligida antropotsentrik paradigmasing lingvokulturologiya yo‘nalishi jadal rivojlanib bormoqda. O‘z navbatida lingvokulturologik bilimlar pragmalingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika, diskurs nazariyasi kabi tutash fanlarga tayanadi. Tor doirada agar biz lingvokulturologiyaning o‘rganish obyekti duo matnlari deb oladigan bo‘lsak, konseptual maydon turli tizimdagи tillarda turfa namoyon bo‘ladi. Ularning namoyon bo‘lish shakllarini ingliz, o‘zbek tillari chog‘ishtirma misolida o‘rganish, umumiy va xususiy jihatlarini aniqlash, har bir tilning o‘zigagina xos bo‘lgan ob’ektiv va sub’ektiv elementlari ifodalanishining konseptual maydoni jihatidan lingvokulturologik tadqiq etish zamonaviy tilshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Metodlar: Diniy korpuslar tahviliga tayangan natijalarini olish maqsadlariga erishish uchun an’anaviy, tavsiylovchi, tahliliy va korpusga asoslangan usullardan foydalanildi.



Corpusda o‘zbek tilining tasnifi

Ushbu korpus yaratish jarayonida, Sketch Engine dasturiga kirganda ushbu holatga duch kelindi. Avval shaxsiy ma'lumotlarni kiritilib registratsiya qilingandan so‘ng, tilni tanlash uchun O‘zbek tili belgilanganda, bu dasturda o‘zbek tilining 3 xil ko‘rinishi mavjud ekan:

Southern Uzbek—janubiy o‘zbek tili


Northern Uzbek—shimoliy o‘zbek tili

Uzbek—umumiyl bo‘lgan o‘zbek tili

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Yana ham qiziqarlisi—Turkic web-Uzbek categoriyasiga joyladi biz tanlagan o’zbek tili korpusini.

Undan so’ng esa, 1tilli korpus yaratish etapidan o’tib,




3-rasm. Ma’lumotlarni sketchengine dasturida yuklash jarayoni

Korpus uchun kiritiladigan ma’lumotlar bazasi yuklanishi uchun quyidagi 2 variantdan biri tanlanildi:

- 1) internet ma’lumoti yoki
- 2) o’zimning matnlarim.

Bizda o’zimiz yig’gan duolar to’plamini word variantda joyланildи.



4-rasm. Yangi “Duolar korpusi” yaratilishi.

Undan so’ng esa keying, o’zbek tilidagi korpus yaratilishga kirishildi va yaratildi, unga “Duolar korpusi” deb nom berildi—Sketchengineda.

Quyidagi jarayonda uning yaratilishi aks ettirilgan:

Ushbu rasmdan bizga single language corpusni tanlashimiz kerak, chunki biz har bitta tilni alohida belgilab, alohida ma’lumotlar bazasini kirtsak bizga shunchalik aniq va nafi tegadigan korpus yaratilishiga ishonchimiz komil bo’ladi.

Duolar korpusi shundan keyingi etapda yaratildi:



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



5-rasm. “Compiled” buyrug’i asosida sketchengine dasturida korpus yaratilishi. Bizdagi “Compiled” yozuvi ishimiz oxiriga yetganini ko’rsatadi. Endigi navbat esa yaratilgan korpusimizni ko’rib chiqib, uni iloji boricha tahlil qilishdan iboratdir.

Xullas, bu bobda biz www.sketchengine asosida inglizcha va o’zbekcha diniy matnlardan korpusini yaratishga erishdik.

Sketchengine dasturi ilovasi orqali duo matnlari korpus tahlil natijalari Magistrlik ishini yozish davomida o’zbek va ingliz tilidagi duolar jamlanmasi tuzib olingandan so’ng, ularni sketchengine.eu dasturi orqali korpuslari yaratilib endi ularning natijasini www.sketchengine.eu dasturi ilovasi orqali duo matnlarning yaratilgan korpus tahlil va natijalarini qayd qilish navbati berildi.

The screenshot shows the Sketch Engine WORD SKETCH interface. The title bar says 'WORD SKETCH ACS Anthology Reference Corpus (AAC)'. A message at the top says 'Your browser (Chrome 109) is outdated. Sketch Engine might not work as expected.' with buttons for 'UPDATE BROWSER' and 'IGNORE'. Below the title, there's a search bar with 'Allah as noun 17s'. The main area contains five tables under the heading 'Word Sketch':

- modifiers of "Allah"**: quran, repada, malu, Aku
- nouns modified by "Allah"**: Yani, imam, paradise, peace, talk
- verbs with "Allah" as subject**: talk
- "Allah" and/or ...**: imam, quran, paradise, Islam
- prepositional phrases**: of "Allah", in "Allah"

At the bottom, there are buttons for 'Privacy preferences', 'Cookie settings', 'REFINE', 'ACCEPT ALL', and 'REFUSE ALL'. The taskbar at the bottom shows icons for the Start button, File Explorer, Task View, Google Chrome, and other system icons.

3.2.6-rasm. Allah so’zining ot sifatida kelishi.

Yuqorida rasmdan ko’rinib turibdiki, Allah so’zi wordsketchda tahlil qilinganda Allah so’zining aniqlovchilari sifatida Quran so’zi birinchi o’rinda kelar ekan. (Modifiers of Allah)

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS




Allah so'zi tomonidan aniqlangan otlar bular: (Nouns modified by Allah)

- Imam
- Paradise
- Peace
- Talk so'zlari ekan.

(Verbs with “Allah” as Subject) da esa fe'l Alloh so'zi bilan ot sifatida bo'lib kelgani bu –Talk so'zidir.

Allah so'zi va/yoki so'zlari bilan quyidagicha uyushib kelarkan:

- Imam
- Quran
- Paradise
- Islam.



Alloh sozining predloglar bilan kelish holati esa quyidagicha kuzatildi:

- 1) Of Allah—Allohnning, Allohdan
- 2) In Allah—Allohdan , Allohga misollari ushbu korpusimizda uyushib kelgan so'zlar bo'lib qayd etilgan ekan.

Demak, Alloh so'zi yuqoridagi tahlillardan 17 holatda Noun—Ot sifatida kelishini sketchengine.eu dasturida ko'rib chiqdik

Buning uchun www.skechengine.eu. Ilovasi kompyuter tizimida yuklanilib, unda quyidagicha xulosalarga erishildi: Uyushgan so'zlar sifatida 10 ta so'zni berib , uni sketchengine rasm ko'rinishida taqdim etadi:

Alloh so'zining boshqa so'zlar bilan uyushib kelishi.

Quyidagi rasmda Allah so'zi 10 ta uyushma so'zlarni hosil qilganini guvohi bo'ldik.

Bunda 4 kategoriya asosida hosil qilinadi:


- “Allah” so'zidan oldingi so'zlar: mag'firat, go'zallik;
- “Allah” so'zidan shundoqqina oldingi so'zlar: panohida;
- “Allah” so'zidan shundoqqina keying so'zlar; sinayapti, sizni, ekan;
- “Allah” so'zidan keying so'zlar: gunohlarimizni.

Bu rasmni dasturdan yuklab olinganda quyidagi alohida chiroyli “collocation image”ni bizga taqdim etdi:



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

7-rasm. “Collocation image generator” taqdimi.



8-rasm. Namoz so’zining Word Sketch qismida yorilishi

Yuqorida manzaradan shuni anglash mumkinki, “Namoz” so’zi wordsketchda 122 marta ishlataligan:

“Namoz” oldingi so’zlar:

Masjidda, rakat, tahorat, ertalabgi, nafl, dinida, chorshanba, keldilar, mahal, Besh, ortida so’zlaridir.

“Namoz”dan shundoqqina oldingi so’zlar:

Masjidda, rakat, ertalabgi, nafl, vaqt, burib, ikki, uning, esa so’zlaridir.

“Namoz” so’zidan keyingi so’zlar:

Qiydilar, tahorat, qildilar, qilsa, bildirish so’zlaridir.

3.9-rasm. “Namoz” so’zining uyushib kelishi 4 ga bo’lingani

Yuqorida sketchengine tomonidan taqdim etgan rasm 4 qismga bo’lingan bo’lib, 4 xil ranglarda ifodalangan.

Ko’k—words just after “ Namoz”

Sariq—words after “namoz”

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



Pushti—words before “namoz”

Yashil—words just before “namoz”

Demak , sketchengine taqdim qilgan ma'lumotda “Namoz” so'zi eng ko'p 122 marotaba so'z uyushmasi hosil qilgan so'z bo'lib yuqorida sanab o'tilgaan “collocation” larni bizga taqdim etgan.

3.10-rasm. Duolar to'plamining wordlistda ifodalaniishi (so'zlar chastotasi)

www.sketchengineda.eu dasturida kiritilgan ma'lumotlarning so'zlar chastotasini bilish uchun Word listga murojaat etiladi. Unda avtomatik tarzda o'zi bizga ma'lumotlarning so'z chastotasini quyidagicha yuqorida ko'rsatilgandek taqdim etdi:

Demak, ushbu yaratilgan duolar to'plamidan eng ko'p ishlatilgan so'z bu:

1. Va—248
2. Ey—74
3. O—66
4. Alloh—58
5. Et—57 marotaba ishlailgandir.

Shulardan agar diniy terminlarni olib tahlil qiladigan bo'lsak:

- Alloh so'zi eng birinchi o'rinda bo'lib, 58 marta takrorlangandir.
- Allohim so'zi- 51 marta
- Illoho so'zi 44 marta
- Duosi so'zi 42 marta
- Duo so'zi 23 marta
- Ato so'zi 23 marta
- Panoh so'zi 20 marta
- Qabul so'zi 17 marta
- Illoh so'zi 15 marta
- Rahmat so'zi 13 marta kelgan ekan.

3.11-rasm. Alloh so'zining wordsketchda boshqacha ifodalaniishi:

- 1) Robbimiz Alloh
- 2) Alloh meni
- 3) Alloh bizni
- 4) Alloh bizga
- 5) Alloh nomi
- 6) Alloh barcha
- 7) Jahannam azobidan
- 8) Robbimiz yomonliklardan
- 9) Robbimi qanday
- 10) Robbimiz Bir

Demak sketchengineda nafaqat so'z balki iboralar tahlilini ham amalga oshirsa bo'lar ekan, uning misolini yuqoridagi ko'rinishdan aniqlanildi.



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



Xulosa: Sketchengine dasturi korpus yaratadigan dastur hisoblanib, unda yig'ilgan ma'lumotlar bazasi kiritilib 1 martalik korpus yaratiladi, hamda tahlil qilinadi. Bu dasturning qirralari ko'p xususiyatli bo'lib, unda bir necha amallarni bajarsa bo'ladi: Wordlist-So'zlarning chastotasi yig'ilishi; Word sketch-so'z uyushmasini olish (pereferik tahlil); Image generator va hokazo.

Biz esa ushbu bobda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. Ingliz tiliga arab tilidan kirib kelgan diniy-islomiy terminlarni va iboralarni yig'dik, ularni BuxDU magistr talabalari(10-1QTL 23 va 4-bosqich 401-guruh talabalari) orasida so'rovnama o'tkazildi. Natijalar bayoniga ko'ra, islomiy terminlar ingliz tili o'r ganuvchilar va foydalanuvchilar orasida dolzarb masala ekanligini, undagi bilimlar talabalar uchun yangi ekanligini aniqladik.

a) Diniy matn sifatida—Ingliz va O'zbek tillaridagi 200 dan ortiq duolarni jamladik va ularni korpus tadqiqini olib boorish uchun www.sketchengine.eu dasturiga yukladik va 2 xil korpus yaratishga muvaffaq bo'ldik: Supplication corpus; Duolar to'plami. Korpus tahlili bizga ko'plab samarali tahlil natijalarini bera oladigan mexanizm hisoblanib, butun dunyo bo'yicha foydalaniladi.

2. Word listda berilgan korpus tahlil qilinganda eng ko'p ishlatilgan so'z bu—ALLOH lafzi ekanligi ma'lum bo'ldi. 58 chastota bilan.

Keyingi o'rnlarda esa: Allohim so'zi- 51 marta; Iloho so'zi 44 marta; Duosi so'zi 42 marta; Duo so'zi 23 marta; Ato so'zi 23 marta; Panoh so'zi 20 marta; Qabul so'zi 17 marta; Iloh so'zi 15 marta; Rahmat so'zi 13 marta kelgan ekan. Keyingi etapda esa, biz "Namoz" so'zini eng ko'p 122 marta wordsketchda kelgan uyadosh so'z ekanligini topdik.

Demak, yuqorida to'plangan ma'lumotlarga tayanib, kelgusida diniy-islomiy terminlar asosida kichik bo'lsada izohli lug'at tuzishga niyat qildik.

Bundan tashqari ushbu maqolada berilgan ma'lumotlar, islomiy duolarning jamlanmasi, ingliz tiliga arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlar agar barcha bu sohadagilarga yetarlicha ma'lumot berdi deb umid qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1) Al-Bukhari, M. (2017). Sahih al-Bukhari: The Book of Supplications. Dar-us-Salam Publications.
- 2) Al-Fahad, A. (2004). Al-Qur'an: A linguistic perspective. International Journal of Arabic Linguistics, 15(3), 5-20.
- 3) Atai, M. (2012). The Qur'an and its interpretation in modern Islamic scholarship. Oxford University Press.
- 4) Abdurrahman, M. (2006). Islamic supplications: Their meaning and significance. Al-Mustafa Press.



**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS**

- 5) Ibn Qudamah, A. (The Book of Du'a (Supplications) (250)Chapter: Issues regarding Supplications, their Virtues and Supplications of the Prophet (pbuh)
- 6) Khattab, M. (2015). The clear Quran: A thematic translation. Kazi Publications
- 7) <https://www.zakeeyaali.com/blog/duas-of-the-prophets-and-the-pious>
- 8) <https://sunnah.com/riyadussalihin/16>
- 9) The Clear Quran (Mustafa Khattab)
- 10) <https://quranwbw.com/duas>
- 11) www.sketchengine.eu

